ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 4/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 4/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 4/1

ТОШКЕНТ-2026

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4/1 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-4/1

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Заитов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрахон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Farfiev Baxrom
FUQAROLIK JAMIYATI, MAHALLA VA OILA INSTITUTLARINING DERADIKALIZATSIYA JARAYONINI AMALGA OSHIRISHDAGI O‘RNI……...5

2. Karimov Bobir
YANGI ÖZBEKISTON ŞAROITIDA YOŞLAR IJTIMOIY KAPITALINI RIVOJLANTIRIŞNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI……16

3. Yunusov Kamaldin
YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADQIQOTLAR SOTSIOLOGGRAFIYASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI…….24

4. Сабирова Умида, Нигматуллина Алина, Румянцева Екатерина
НЕЭТИЧНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ПСИХОЛОГОВ КАК СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА…….31

5. Якубов Ильдар
СОЦИАЛЬНОЕ ИЗМЕРЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ: КАК СОТРУДНИЧЕСТВО ВЛИЯЕТ НА КАЧЕСТВО ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ…….40

6. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA INKLYUZIV TARAQQIYOTNING SOTSIOLOGIK DISKURSI…..48

7. Musurmanov Nodirbek
INSON KAPITALI VA IJTIMOIY RIVOJLANIŞ UYĞUNLIGI……56

8. Alimuxamedova Nodira
GLOBAL RAQAMLAŞUV DAVRIDA IJTIMOIY ONG RIVOJLANIŞINING XUSUSIYATLARI……65

9. Nematova Dilfuzaxon
JAMIYAT VA INSONLAR HAYOTIDA IJTIMOIY TARMOQLARNING AHAMIYATI……..71

10. Qosimov Vohid
DAVLAT XIZMATIDA HALOLLIK VA ADOLATNI TA’MINLAŞGA DOIR ŞARQ VA ĞARB MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTLARINING NAZARIY TAHLILI…….78

11. Husenov Sirojiddin
IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAKATI BILAN UYĞUNLIGI……..88

12. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA IJTIMOIY BARQARORLIK VA KAFOLATLI XAVFSIZLIKNI TA’MINLAŞ IMKONIYATLARI…….93

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Alimuxamedova Nodira,
falsafa doktori (PhD), dotsent
«TIQXMMU» MTU
email:alimukhamedova.n@gmail.com

GLOBAL RAQAMLAŞUV DAVRIDA IJTIMOIY ONG RIVOJLANIŞINING XUSUSIYATLARI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24134461

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamlaşgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiyot, madaniyat, ya'ni ijtimoiy xayotning barça sohalari, şu bilan birga zamonaviy inson ongi özgarib borayotgani körib çiqilgan. Ma'lumot uzatiş va bilimlar almaşinuvining yuqori tezligi, özaro aloqalar va kasbiy faoliyatning yangi formatlarini şakllanişi, haqiqiy va virtual şaxslar örtasidagi çegaralar asta-sekin şaffoflaşib borişi, bu öz-özini anglaş, şaxslararo munosabatlar va hayotiy qadriyatlar haqidagi an'anaviy g'oyalarni özgarişi, hamda voqelikni idrok etişga ta'sir qilişi körib çiqilgan.

Kalit sözlar: axboratlaşgan jamiyat, postmodernizm, raqamli texnologiyalar, internet, transformatsiya, identifikasiya, identiklik, qadriyatlar.

Алимухамедова Нодира,
доктор философии (PhD), доцент
«ТИИИМСХ» НИУ
email:alimukhamedova.n@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛЬНОЙ ЦИФРОВИЗАЦИИ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются общественные отношения, экономика, культура, т.е. все общественные отношения в цифровом обществе и трансформация сознания современного человеческа. Высокая скорость передачи информации и обмена знаниями, формирование новых форматов взаимодействия и профессиональной деятельности, постепенное размывание границ между реальными и виртуальными индивидами, что меняет традиционные представления о самосознании, межличностных отношениях и жизненных ценностях, а также влияет на восприятие реальности**.**

Ключевые слова: информационное общество, постмодернизм, цифровые технологии, интернет, трансформация, идентификация, идентичность, ценности.

Alimukhamedova Nodira,
Doctor of Philosophy (PhD)
«TIIAME» NRU

email:alimukhamedova.n@gmail.com

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PUBLIC CONSCIOUSNESS IN THE ERA OF GLOBAL DIGITALIZATION

ABSTRACT

The article examines social relations, economics, culture, i.e. all social relations in the digital society and the transformation of modern human consciousness.The high speed of information transfer and knowledge exchange, the emergence of new formats of interaction and professional activity, and the gradual blurring of boundaries between real and virtual individuals are examined, changing traditional notions of self-awareness, interpersonal relationships, and life values, as well as influencing the perception of reality.

Key words: information society, postmodernism, digital technologies, Internet, transformation, identification, identity, values.

KIRIŞ

Tarixiy jarayonlarning mazmuni va yönalişi muammolari doimo ijtimoiy fanlar, falsafiy izlanişlar markazida bölib kelgan. Bugun, şu jumladan ijtimoiy falsafa oldida yangi dunyoqaraş muammosi va mutlaqo yangi noan'anaviy vazifalar mavjud. Ijtimoiy özgarişlar dinamikasining tahlili şuni körsatadiki, bugun insoniyat taqdiri keskin özgarib bormoqda, insonlar öz hayotiy faoliyatlarini ekologik va ijtimoiy muammolarga töla beqaror va xavfli dunyoda olib bormoqdalar. Bu esa ijtimoiy rivojlanişning muqobil yöllarini izlaşga e'tiborni kuçaytiradi. Omon qoliş strategiyasi vaqt talabiga aylangan, uning asosiy qoidalarini esa hayotning özi taqozo etmoqda. Barqaror rivojlanişning butun qadriyatlar tizimi ekologik va gumanistik qadriyatlarga, tabiat va şaxsga nisbatan zöravonlik qilmaslikka asoslanişi darkor. Ijtimoiy taraqqiyotda spontan omillar ustuvorligini yengib ötiş, texnologik, ekologik, ijtimoiy va boşqa muammolarga töla beqaror sivilizatsiyaning stixiyali mexanizmlarini tizimli, refleksiv va institutsional tarzda boşqarişning samarali, ilmiy asoslangan, xavfsiz muqobilini yaratiş davr talabiga aylangan.

Axborot erkinligi, telekommunikatsiya va yuqori texnologiyalarga asoslangan raqamlaşgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiyot, madaniyat, ya'ni ijtimoiy xayotning barça sohalari özgarişga uçradi. Şu bilan birga sun'iy intellekt rivojlanib borayotgan bir davrda ijtimoiy munosabatlar şakllari, vaqt va makonni idrok etiş özgarib, inson tafakkuri, umuman olganda jamoa ongining transformatsiyasi masalasi kun tartibiga qöyilmoqda. Ma'lumot uzatiş va bilim almaşinuvining yuqori tezligi, özaro aloqalar va kasbiy faoliyatning yangi formatlarini şakllanişi, köplab tarmoq identifikatorlarining paydo bölişiga olib keldi. Bu jarayonlar esa atrofdagi voqelikni idrok etişga ta'sir qilmoqda. Bugun haqiqiy va virtual şaxslar örtasidagi çegaralar asta-sekin şaffoflaşib bormoqda, bu esa öz-özini anglaş, şaxslararo munosabatlar va hayotiy qadriyatlar haqidagi an'anaviy ğoyalarni özgartirişiga olib kelyapti.

METODOLOGIYA

Raqamlaşgan jamiyat şaxs şakllanişi, inson ongi va ijtimoiy ongning şakllanişiga çuqur ta'sir ötkazmoqda. Albatta, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli muhit özini namoyon qiliş uçun insonga keng imkoniyatlar yaratadi, ta'lim oliş, ijodkorlikni rivojlanişi, hamda jamoaviy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Lekin, bu ta'sirning ikkinçi tomoni mavjud bölib, ijtimoiy makonda obyektiv voqe'likka doim ham mos kelmaydigan ideallar, turmuş tarzi, "mukammal hayot", "virtual obrazlar" tarğiboti mavjud bölib, ular doim ham real insonga töğri kelmaydi. Natijada virtual olam mahsuli asosida şakllangan jamoatçilik fikri va stereotiplarning ta'sir darajasi ortib borib, özini namoyon qiliş masalalarida insonga bosim kuçayişiga sabab bölmoqda [1]. Albatta, raqamli olamdagi bu özgarişlarni şaxsning psixologik xolati, şaxslararo munosabatlar, qadriyatlariga ta'siri asosidagi zamonaviy inson ongi va ijtimoiy ong transformatsiyasi, şuningdek, şaxsning öz-özini rivojlantiriş qobiliyatini örganiş zarurati mavjud.

Axborot jamiyatining rivojlanişi nafaqat jamiyatning barça sohalariga, balki insonning içki dunyosiga ham ta'sir ötkazib kelayotgani yaqqol körinmoqda. Zamonaviy inson çeksiz axborot

tölqini ostida qoldi, ammo bunday katta kölamdagi axborotni qabul qiliş va qayta işlaşga qodir emas. Natijada insonda çuqur tahlil qiliş qobiliyati susayib, diqqat yetişmovçiligi, giperaktivlik, tez qaror qabul qiliş kabi xususiyatlar rivojlanmoqda. Keraksiz, mazmun-mohiyatsiz, ayrim xollarda salbiy ta'sir qiluvçi ma'lumotlar, reklama insonni diqqat e'tiborini öziga qaratib, haqiqiy muammolardan çetlaştirmoqda. Bugun olimlar kiberijtimoiylaşuv, "klipli tafakkur" haqida gapirmoqdalar. Ötgan asrda axborotlaşgan jamiyat haqidagi ilk tadqiqotlarda e'tibor odamlarga axborot oliş va uzatiş imkoniyatini beruvçi kompyuterlaştiriş, avtomatlaştirişga qaratilgan edi. Aslida bugungi voqelikka xos bölgan xususiyatlar haqida falsafiy ta'limotlar ança ilgari şakllangan edi.

Axborot jamiyatini tahlil qilişda ğoyalar plyuralizmi va an'anaviy ijtimoiy tuzilmalarni dekonstruksiya qiliş ğoyasiga asoslangan postmodernizm ham muhim yondaşuv hisoblanadi. Ijtimoiy konstruktivizm konsepsiyasi asosçilari A.Şyus, P.Berger va T.Lukman aslida "obyektiv" deb tasavvur qilingan ijtimoiy borliqni subyektiv bilimlarning asosida obyektivlaşgan "konstruksiya" ekanligi töğrisidagi ğoyani ilgari suradilar. Ammo, modernizm davrining boşidanoq, «anglangan voqelik – konstruksiya» dixotomiyasi zamonaviy ilm-fan va gnoseologiyaga hamroh bölgan. Konstruktivizmga Janbatisto Viko, Immanuil Kant, Vilgelm Gegel, Edmund Gusserl va umuman nemis epistemologiyasini konstruktivistlar özlarining oldingi vakillari, deb e'tirof etiş imkonini berdi [2]. 1950-yillarda «konstruktivizm» atamasi şveysariyalik psixolog, faylasuf Jan Piaje va amerikalik psixolog Jorj Kelli asarlari orqali ilmiy muomalaga kirib keldi, ammo ijtimoiy fanlarda nufuzli ilmiy epistemologik pozitsiya mavqeiga «madaniy buriliş» şaroitida ega böldi[3]. Amerikalik psixolog, şaxs konstruksiyalari ta'limoti asosçisi J.Kelli inson tabiatini an'anaviy ilmiy usulda tadqiq etmadi. Biz qanday idrok etişimizdan qat'i nazar, obyektiv voqelikni tuşuniş mumkinligini ta'kidlovçi realizmning falsafiy pozitsiyasiga qarşi çiqqan J.Kelli, konstruktiv alternativizm haqidagi epistemologik ta'limotini ilgari surdi, uşbu ta'limot böyiça faqat inson içki olamining voqealari haqiqiydir. Olim uçun obyektiv haqiqat bizning şaxsiy talqinimizdan taşqarida mavjud emas[4]. Demak, virtual olam ta'sirida qolgan zamonaviy insonning obyektiv haqiqatni şaxsiy talqini ham virtual makondan olgan axborotlariga boğliq böliş ehtimoli judda katta.

«Madaniy buriliş» ötgan asrning 70-yillarining boşlarida gumanitar va ijtimoiy fanlar olimlari tomnidan boşlangan harakat bölib, asosiy maqsad – zamonaviy munozaralar markaziga madaniyatni olib çiqiş, şuningdek, diqqatni pozitivizmdan epistemologiyaga, ma'nolar, lingvistika tomon siljitiş bölgan. Turli mutaxassislik olimlari olib borayotgan polemik tortişuvlar lingvistik buriliş, postmodernizm, dekonstruksiya yoki madaniy buriliş bilan boğliq edi. «Madaniy buriliş» Ğarb olamiga yoyilişi bevosita Per Burde va Mişel Fukolarning ta'limotlarida keng muhokamaga sabab böldi. «Postmodernizm» yoki «postmodern» tuşunçasi madaniy öz-özini anglaş sifatida qabul qilingan edi. Bu atama fransuz tilida «modernizm»dan keyingi ma'nosini anglatib, avval adabiyot va amaliy san'atdagi yangi yönalişlarni xarakterlaş uçun işlatiladi. «Modern» – inson tafakkurining kuçini işonçga asoslanganligi, bilim, fan va madaniyatni irratsionalizmdan xalos etişga qaratilganligi hamda yangi davrning ma'naviy holati, ma'rifatparvarlik davri bilan boğliqligi, tabiat ustidan inson hukmronligi, ijtimoiy adolat va insonparvarlik örnatilişiga işonçni anglatar edi. Postmodernizm esa aynan modernizmni tanqid qiliş natijasida şakllangan. Modernizm tafakkuri va dunyoqaraşining tanqidi XIX asrning ikkinçi yarmidan nomumtoz faylasuflar tomonidan boşlanib, XX asrda postmodernizm şakllanişiga zamin yaratgan edi. Postmodernizm şakllanişiga K.Marksning har qanday haqiqat nisbiy xarakterga ega ekanligi haqidagi fikrlari, F.Nisşening nigilizm falsafasi, Z.Freydning inson hayoti va madaniyat rivojida ongsizlikning (ong osti) roli haqidagi ta'limoti katta ta'sir körsatgan. XIX asrning oxirida tabiiy fanlarning rivoji relyativistik qaraşni tasdiqlanişiga va har qanday absolyut haqiqatni rad etilişiga olib keldi. Relyativistik fikrlaş tarzi hamda dunyoning relyativistik ilmiy manzarasi şakllanişiga hissa qöşadigan muhim kaşfiyotlar qatorida atomning bölinişini kaşf qilinişi, nisbiylik nazariyasini şakllanişi, radioaktivlik, kvant mexanikasining yaratilişi, genetikaning rivojlanişi, universal evolyusionizm va sinergetika tamoyillarining şakllanişini kiritiş mumkin. Dunyoning relyativistik ilmiy manzarasi mumtoz davr tafakkuridagi barqarorlik, doimiylik, markazlaşuv, mutlaqlikka da'volarining örinsizligini, aksinça beqarorlik, nisbiylik va nomarkazlaşuv falsafasini örnatilişini ta'minladi. Agar I.Nyuton modernizm şakllanişiga

hissa qöşgan bölsa, A.Eynşteyn postmodernizmining şakllanişiga asos yaratgan. Postmodernizm variantlilikka yönaltirilgan falsafiy va madaniy hodisa sifatida şakllangan edi.

XX asrda borliq – dunyo miqyosidagi tartibsizlik, absurd va intiho asri bunyod etgan yangi postmodernistik şaklni e'lon qilgan postmodern instinkt, boşboşdoqlik va yuriş-turişlarning rang-barangligi, spontanlik hamda tartibsizlik tomon yuz tutgan. San'at va borliq orasidagi masofa tobora qisqarib, mutlaqo yöqoliş darajasiga yaqinlaşgan edi. Köçadagi narsalar badiiy asarlar ahamiyatini kasb etgan. Postmodern hayotdagi haqiqiy qarama-qarşiliklardan kelib çiqişga harakat qilib, borliqdan «nusxa» köçirgan va «öz tartibi»ni taklif etgan edi. Odatdagi narsalarning oddiy aloqalarini neytrallaştirib, ularni obrazli-badiiy dunyoqaraş maqomiga da'vogar bölgan yangi ma'nolar tizimiga kiritişga intiliş ijodning mohiyatiga aylangan[5].

Postmodern davrining eng nufuzli ilk faylasuflari Jan Bodriyyar, Jan-Fransua Liotard va Jak Derrida edi. F.Nisşedan söng, Fuko bilimlar har bir tarixiy davrda tubdan özgarib, hokimiyat tomonidan yaratiladi, degan fikrni ilgari surdi. F.Nisşening ahloqning genealogiyasi, unda ahloq subyekt tajribasining tarixiy şakli sifatida namoyon bölişi haqidagi ğoyasini M.Fuko qayta fikrlab va özga ma'no baxş etdi. Olim hokimiyatga intilişda turli irodalarning töqnaşuvi va modifikatsiyasi natijalari asosida hokimiyatga intiliş irodasi – genealogiyani harakatlantiruvçi kuçi, degan xulosaga keldi.

Postmodernizm falsafasining vakillari M.Fukoning "bilim va siyosiy hokimiyat munosabatlari" haqidagi qaraşlari, J.Derridaning Ğarb falsafasi va madaniyatining "dekonstruksiya"si, P.Burdening "gabitus" nazariyasi, J.Bodriyyarning "simulyakr" va "simulyatsiya"lar haqidagi qaraşlarida axborot asrining nusxalar, simulyakr va simulyatsiyalarda "real voqelik" bilan "tasavvur" orasidagi farqlar yöqolib borişi tufayli voqelikning barbod bölişi mumkinligi haqidagi qaraşlar [6] axborot jamiyatida bugungi kunda keçayotgan jarayonlarni tahlil qilişning nazariy asosini taşkil qildi.

Ijtimoiy konstruktivizm konsepsiyasi asosçilari inson ongining mahsuli bölmiş ğoyalarni obyektivlaştiriş haqidagi ta'limotni ilgari surişgan edi. Jan Bodriyyar özining "Simulyakrlar va simulyatsiyalar" nomli maşhur asarini quyidagi epigraf bilan boşlagan: "Simulyator haqiqatni yaşiradigan narsa emas – bu uning yöqligini yaşiradigan haqiqatdir. Simulyator – bu haqiqat". Olim fikriça virtual olam tasvirlar va nus'halar, ya'ni simulyakrlarni yaratadi, ular asosida haqiqiy voqe'lik örniga, haqiqiy deb qabul kilinuvçi yangi muhit – "giperreallik" şakllanadi [7]. "Simulyakr" sözi lotin tilidan olingan bölib, "nus'ha", "öxşaşlik" ma'nolarini beradi. Virtual makon haqiqiy obyektiv asosga ega bölmagan nusxalar – simulyakrlarni yaratadi. Natijada, odamlar tomonidan jismoniy dunyodan köra işonarli va "haqiqiy" deb qabul qilinadigan, aslida sun'iy bölgan yangi muhit — giperreallik şakllanadi. "Giperreallik" ni mohiyatini "nimanidir simulyatsiya qiliş", ya'ni real mavjud bölmagan narsalarni simulyatsiya qilişdan iborat [8].

XULOSA

Raqamlaştiriş kontekstida jamoaviy ong tobora ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar tomonidan taqdim etilgan filtrlar va talqinlar orqali qabul qilinadigan ma'lumotlarga asoslangan muhit yaratadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvçi haqiqiy odamni emas, balki idealizatsiya qilingan özi özini tasvirini aks ettiradigan kerakli rasm yoki "avatar" yaratişi mumkin. Ya'ni, inson özini raqamlaşgan "Men"ni yaratiş imkoniga ega. Albatta, vertual obraz inson hayotida intilgan, lekin yetişa olmagan jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy xususiyatlarga ega böladi. Uşbu hodisa yangi ijtimoiy voqelikni şakllantiradi, bu yerda asl voqelik va nusxa örtasidagi çegaralar şaffoflaşadi. Köplab "virtual hamjamiyat"lar şakllanib, ularning iştirokçilari boşqa köplab şunday hamjamiyatlarga a'zo bölib, bir-birini tanimagan xolda yagona ğoyalar atrofida birlaşib, yuqori moslaşuvçanligi bilan ajralib turadi. Lekin, bunday ijtimoiy aloqalar yuzaki, vaqtinça, şu bilan birga insonlarning dunyoqaraşi, fikrlaşiga katta ta'sir ötkazib, manipulyatsiya qiliş imkonini yaratadi. Uşbu ijtimoiy tarmoqdagi ijtimoiy aloqalar simulyatsiyadir. Raqamlaşgan jamiyat inson ongiga faqat texnik jihatdan ta'sir qilib qolmay, balki dunyoqaraşiga, qadriyatlar orientatsiyasiga, ahloqiy qaraşlariga, identikligiga ta'sir ötkazmoqda. Inson ongi, ijtimoiy ong, identiklik transformatsiyasida "giperreallik" asosiy rolni öynamoqda, buning natijasi ölaroq zamonaviy inson, ayniqsa yoşlarni

obyektiv voqelikdan tobora begonalaşib, virtual makonga, global axborotga qaramligi ortib bormokda.

"Klipli tafakkur" yoki "klipli fikrlaş" aslida fragmertar fikr yuritişdir. Birinçilardan ötgan asrning 60-yillarida Kanadalik "media faylasuf" Marşal Maklyuen mass-media vositalarini insonning tafakkuri, biliş jarayonlarini özgartirişi haqida gapirgan edi. Axborotlaşgan jamiyatda keçayotgan uşbu salbiy jarayonlarni oldini oliş, kiberxavfsizlikni ta'minlaşning yöllaridan biri axborot madaniyatini şakllantiriş, axborot savodxonlikni rivojlantirişdir. Ayniqsa yoşlarda mantiqiy va tanqidiy fikr yuritiş könikmalarini rivojlantiriş muhim.

Taniqli sotsiolog Manuel Castells axborotlaşgan jamiyatning rivojlanişini tahlil qilar ekan, quyidagi fikrni ilgari suradi: «Tarmoqlar jamiyatimizning yangi ijtimoiy morfologiyasini taşkil etadi» [9].

Mazkur nazariy yondaşuv global raqamlaşuv şaroitida ijtimoiy ongning rivojlanişi an'anaviy ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda raqamli kommunikatsiya tarmoqlari ta'sirida ham kechayotganligini anglatadi. Raqamli platformalar orqali axborot almaşiş, ijtimoiy munosabatlarni şakllantiriş va jamoatchilik fikrini ifodalaş imkoniyatlarining kengayişi ijtimoiy ongning yangi kommunikativ xususiyatlarini yuzaga keltirmoqda. Şu sababli raqamli jamiyatda ijtimoiy ongning rivojlanişini tahlil qilişda axborot oqimlari, virtual ijtimoiy aloqalar va raqamli muhitdagi qadriyatlar transformatsiyasini kompleks örganiş muhim ahamiyat kasb etadi.

Kanadalik kommunikatsiya nazariyotchisi Marşall McLuhan ommaviy kommunikatsiya vositalarining jamiyat va inson tafakkuriga ta'sirini quyidagicha ifodalaydi: «Vositaning özi – xabardir». Asl ibora: "The medium is the message." Uşbu konseptual yondaşuvga köra, raqamli kommunikatsiya vositalari faqat axborotni yetkazib beriş bilan cheklanmay, balki insonlarning voqelikni idrok etişi, fikrlaş uslubi va ijtimoiy munosabatlariga ham ta'sir körsatadi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar jamoatchilik fikrining şakllaniş tezligini oşiriş, yangi qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarning tarqalişiga ta'sir etiş imkoniyatiga ega. Şu bilan birga, algoritmik axborot saralaş, dezinformatsiya va manipulyativ kommunikatsiya ijtimoiy ong rivojlanişida muayyan xavflarni yuzaga keltiradi. Bu esa raqamli savodxonlik, tanqidiy tafakkur va axborot madaniyatini rivojlantiriş zaruratini kuchaytiradi.

Şunday qilib, M.Kastels va M.Maklyuenning nazariy qaraşlari global raqamlaşuv davrida ijtimoiy ong rivojlanişining öziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslaş imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy ongning şakllanişi, rivojlanişi va namoyon böliş mexanizmlarini özgartirib, jamiyatda yangi kommunikativ munosabatlar, ijtimoiy qadriyatlar va jamoatchilik fikrining şakllanişiga ta'sir körsatmoqda. Şu bois global raqamlaşuv şaroitida ijtimoiy ongning barqaror rivojlanişini ta'minlaş raqamli madaniyatni yuksaltiriş, axborotga tanqidiy munosabatni şakllantiriş va inson manfaatlariga yönaltirilgan kommunikativ muhitni rivojlantiriş bilan uzviy boğliqdir.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Бурнашев Р.Ф., Холмаматова А.Ш. Информационное общество и трансформация личности: социально-философский анализ угроз и возможностей // Universum: общественные науки : электрон. научн. журн. 2024. 11(114). URL: https://7universum.com/ru/social/archive/item/18634 (дата обращения: 17.05.2026).

2. Конструктивистский подход в эпистемологии и науках о человеке / под ред. В.А. Лекторского. – М.: Канон, 2019.

3. Алексеева Т.А. Химеры страны Оз: «Культурный поворот» в теории международных отношений» / Т.А.Алексеева // Международные процессы. 2022. Сентябрь - декабрь. Т. 10. № 3. – С. 4–19.

4. Левицкая И.А. Теория личностных конструктов Дж. Келли: на пути к когнитивной философии образования. //Вестник Нижегородскогоуниверситета им .Н.И. Лобачевского. Социальные науки. 2023. №2 (30). – С. 119.

5. Шермухамедова Н. Фалсафанинг умумназарий масалалари. – Б.35.

6. Шюц А.О множественных реальностях // Избранное: Мир, светящийся смыслом. – М., 2014; Бергер, П. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания / П.Бергер, Т.Лукман. – М.: Медиум, 2015. – С. 303 с

7. Новиков В.Г., Ковалева С.В. Гиперреальность, симулякры и симуляции в виртуальном пространстве как феномен «антисоциальной» теории Жана Бодрийяра //Цифровая социология. – 2019. – №. 1. – С. 39-45.

8. Бодрияр Ж. Симулякры и симуляция. – М:. АСТ,2011.

9. Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2016. – P. 500.

10. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. New York: McGraw-Hill, 2024.

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000